

FARG'ONA VILOYATI HOKIMIGA YANGI O'RINBOSAR TAYINLANDI

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Iqtisodiy diplomatiya va madaniy hamkorlik departamenti direktorining birinchi o'rinnbosari bo'lib ishlab kelgan Mamajonov Nuriddin Yoqubjonovich Farg'ona viloyati hokimining o'rinnbosari – viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig'i etib tayinlandi. Bugun viloyat hokimligida bo'lib o'tgan yig'ilishda viloyat hokimining tegishli qarori o'qib eshittirilib, Nuriddin Mamajonov viloyat hokimining o'rinnbosari sifatida tanishtirildi.

Nuriddin Mamajonov 1982-yil 27-iyulda Quvasoy shahrida tug'ilgan. Ma'lumoti oliy. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetini hamda Markaziy Bogema universitetini (Praga) tamomlagan. Yevropa amaliy fanlar va menejment institutida (Praga) Biznes boshqaruvi doktori (DBA) ilmiy darajasini olgan.

Mehnat faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida, Adliya vazirligida turli mas'ul lavozimlarda ishlagan. O'zbekiston Respublikasining Germaniyadagi elchixonasida, Frankfurt-Mayn shahridagi Bosh konsulxonasida faoliyat olib borgan. 2022-2023-yillarda O'zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasidagi elchixonasida savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchi bo'lgan.

Nuriddin Mamajonov tayinlovga qadar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Iqtisodiy diplomatiya va madaniy hamkorlik departamenti direktorining birinchi o'rinnbosari – Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik boshqarmasi boshlig'i lavozimida ishlab kelayotgandi.

2021-yil may oyidan 2023-yil noyabrga qadar Farg'ona viloyati hokimining o'rinnbosari – viloyat investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig'i bo'lib faoliyat olib borgan Iqboljon Ergashev Prezident qaroriga asosan Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi raisi lavozimiga tayinlangandi.

2023-11-28 19:23:09